

**TASVIRIY SANAT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI YO‘NALISHI TALABALARI UCHUN
BITIRUV MALAKAVIY ISHI MAVZULARI**

T/r	BMI LOYIHA MAVZULAR	
1	“BIM texnologiyasi vositasida ta’lim samaradorligini oshirish” (“Muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida).	<p>Maqsad: BIM texnologiyasi vositalari yordamida ta’lim sifatini oshirish va muhandislik grafikasi fanlari bo’yicha dasturlar yordamida elektron darslik yaratish.</p> <p>Vazifa: 1.BIM texnologiyasi bo’yicha adabiyotlar tahlili o’tkazish; 2.BIM texnologiyasi vositalariga kiruvchi grafik dasturlar bilan ishlash; 3.BIM texnologiyalari yordamida bajarilgan ishlarni amaliyotga tadbiq etish.</p>
2	4D dasturlar yordamida O’rta qavatli mehmonxonalar dizayn ishlarini takomillashtirish (Revit dasturi misolida).	<p>Maqsad: 4D dasturlar yordamida O’rta qavatli mehmonxona loyihalarini yaratish va dizayn ishlarini takomillashtirish buyicha tavsiyalar ishlab chiqish.</p> <p>Vazifa: Barcha turar joy va noturar joy inshootlar bilan tanishish va ularni mavjud loyihalarini tahlil qilish. O’rta qavatli mehmonxonani 3 o’lchamli modellarini yaratish.</p>
3	Kompyuter grafikasi vositasida zamonaviy turar joy binolarini texno zonalar uchun loyixalash.	<p>Maqsad: Kompyuter grafikasi vositasida zamonaviy turar joy binolari uchun texno zonalar loyihalarini yaratish va loyiha uchun dizayn yechimlarini takomillashtirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish.</p> <p>Vazifa: 1.Zamonaviy turar joy inshootlarini o’rganib chiqish va tahlil qilish; 2.AutoCad dasturi yordamida zamonaviy turar joy binolarini loyihalash;</p>
4	Jizzax viloyatida madaniy hordiq hududlarini rivojlantirish yo’nalish va mexanizmlari.	<p>Maqsad: 3D dasturlar yordamida madaniy hordiq hududlarining loyihalarini yaratish va dizayn ishlarini takomillashtirish buyicha tavsiyalar ishlab chiqish</p> <p>Vazifa: 1.Jizzax viloyatida joylashgan madaniy hordiq hududlarini o’rganib chiqish; 2.Madaniy hordiq markazlarini rivojlantirish yo’llarini ishlab chiqish; 3.Jizzax viloyatidagi madaniy hordiq hududlarini zamonaviylashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish;</p>
5	Tasviriy san’at ta’lim yo’nalishi talabalarining	<p>Maqsad: Tasviriy san’at ta’lim yo’nalishi talabalarining pedagogik mahoratini rivojlantirish uchun pedagogik texnologiyalarni qo’llash va shu bo’yicha tavsiya va takliflar berish</p> <p>Vazifa:</p>

	pedagogik mahoratini rivojlantirish texnologiyasi.	1.Tegishli adabiyotlar tahlilini o'tkazish; 2.Tasviriy san'at fanlarida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar bilan tanishib chiqish; 3.Talabalarning qiziqishlarini bilish maqsadida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazish;
6	O'quvchilarning ijodiy tasavvurlarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik xususiyatlari.	Maqsad: Dars davomida o'tilayotgan mavzular doirasida o'quvchilarning ijodiy tasavvurni rivojlantirishning ilmiy va pedagogik xususiyatlarini takomillashtirish va amaliyotga tadbqiq etish Vazifa: 1.Ijodiy tasavvurni rivojlantirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish; 2.Pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda o'quvchilarning ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish; 3.Tasavvurni rivojlantirishda ilmiy va pedagogik metodlarni amaliyotda qo'llash.
7	Xo'jamushkent tarixiy yodgorligining landshaft dizayni yechimida milliy naqshlar asosida taklif loyiha (Yangiobod tumani misolida).	Maqsad: Xo'jamushkent tarixiy yodgorligining landshaft dizayn yechimlarini takomillashtirish, eksterior va interior ko'rinishlariga milliy naqshlardan foydalangan holda milliylikni targ'ib etish asosida taklif loyiha berish Vazifa: 1.Xo'jamushkent tarixiy yodgorligi bilan tanishib chiqish va tarixini o'rganish; 2.Yangiobod tumanining Xo'jamushkent tarixiy yodgorligi joylashgan hududning landshaftini o'rganish; 3.Dizayn yechimida foydalaniladigan milliy naqshlarni landshaft dizayniga mos holda loyihalash va amaliyotga tadbqiq etish.
8	Sharof Rashidov muzeyining tarixiy, arxitekturaviy va dizayn yechimlarini takomillashtirish.	Maqsad: Jizzax viloyati hududida markazida joylashgan Sharof Rashidov muzeyining tarixiy, arxitekturaviy va dizayn yechimlarini takomillashtirishda ichki (interior) ko'rinishi va tashqi fasad qismiga zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda 3D modelini yaratish va taklif loyiha berish. Vazifa: 1.Sh.Rashidov muzeyining tarixini va joylashuv o'rnini o'rganish; 2.Muzeyning arxitekturaviy va konstruktivniy qurilishini o'rganib chiqish; 3.Muzeyning dizayn yechimlarini takomillashtirgan holda 3D modelini yaratish va amaliyotga tadbqiq etish.
9	Milliy ma'naviyatimizning tiklanishida ta'sviriy san'atning ahamiyati.	O'zbek xalq rassomlarining(milliy mavzuga asoslangan) ijodini o'rganish va katalogini yaratish .
10	Amaliy san'atni o'rganishda ajdodlarimiz ma'naviy merosidan foydalanish.	Xalq amaliy san'ati ustalarining ijodiy faoliyatini alfavit tartibida bir tizimga keltirish. (amaliy san'atning har-bir turi bo'yicha)

11	Tasviriy san'atda rangtasvir fanining o'rni.	“Rangtasvir o‘qitish metodikasi” rangtasvirda iste’dodni shakllantirish akademik rangtasvir san’ati tazimidagi qonun qoidalari, uslubiyatini va texnologik jihatlarini singdirish va maxorat kunikmalarini shakllantirish yo‘lidagi badiiy maktablar uslubiyatiasrlar mobaynida shakllangan an’analar, tarixiy yutuqlar, o‘ziga xosliklari, kup asrlik ta’lim tizimi realistik badiiy ta’lim asosidagi tasviriy san’at pedogogikasi shakllantirganta’lim metodologiyasiga doir rangtasvir uslubiyati asoslarini singdirib borish tarzida olib boriladi.
12	Talabalarda rangtasvir fani bo‘yicha ijodiy qobiliyatini shakllantirishning amaliy ahamiyati.	Rangtasvir fani asrlar mobaynida shakllangan badiiy ta’lim an’analari va rangtasvir san’ati ustoz-san’atkorlarining yaratgan uslubiyatlari tahlili vositasida, hamda o‘quv topshiriq vazifalari bajarish jarayoni ya’ni amaliy mashqlar jarayonlaridagi muntazamlik doirasida amalga oshiriladi. Rangtasvirdan o‘quv topshiriqlarini bajarishda,uning asrlar mobaynida yaratilgan qonun va qoidalari, usul va uslublari vositasida rangtasvirning nazariy jixatlari va badiiy savodxonlikning maxorat saboqlarini qo‘lga kiritadi. Bunda nafaqat badiiy maxorat,balki o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonlari mobaynida o‘z shaxsiyligiga xos bo‘lgan badiiy talqinini yaratish borasida so‘z yuritiladi, undagi tasvir hayotiyligini aks ettirishga yordam beradi. Rassom asar yaratishga kirishar ekan shuni e’tiborda tutish lozimki ,ushbu qonuniyatlar rangtasvir barcha turlari shakl va janrlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, o‘quv topshiriqlarda tasviriy muhiti echimini tashkil qilishga yordam beradi.
13	Piyodalar o‘tish joylaridagi svetaforlarni piyoda yaqinlashganda yashil chiroq yonadigan qilishni yaratish	Piyodalar hayotini asrash maqsad qilib olindi. Gohida odam o‘tish joylarida transport vositalari bir kishi uchun to‘xtamay harakatlanaveradi, bu odam hayoti uchun havfli hisoblanadi. Sensorli SMART (aqlli) svetaforlar ixtiro etilsa shu orqali odamlar hayoti ko‘proq saqlab qolishga erishiladi.